XALQ DEPUTATLARI KOGON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 3-aprel VII-26-34-2-208-K/26 Kogon shahar

Kogon shahar hududida 2026-yil uchun alkogol mahsulotlarini (pivo bundan mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (pivo bundan mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘im stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish sur’atlarini jadallashtirish, shahar hokimligining dolzarb muammolarga tez yechim topish borasidagi vakolatlari va moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida ko‘zda tutilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Kogon shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Kogon shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2026-yil 04-martdagi №06-403/20-12-38/98/1-02-06-212/20-040/1/22-sonli hamda shahar soliq inspeksiyasining 2026-yil 04-martdagi №2/5-sonli qo‘shma xatlari inobatga olinsin.

2. Kogon shahar hududida 2026-yil uchun “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlariga kiritiladigan o‘zgarishlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari — shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i hamda shahar soliq inspeksiyasi (K.Axmadova) bilan birgalikda mazkur qaror ijrosini qonunchilik talablari asosida o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlasin.

4. Shahar hokimligi apparati matbuot xizmati (N.Narzilloyev) va “Kogon hayoti” shahar gazetasi tahririyati (Z.Xalilova)ga mazkur qarorni shahar

hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin hamda “Kogon hayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi J.Do‘stov zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin uch oydan so‘ng kuchga kiradi.

Kengash raisi **YANGIYEV ALIMJON XOSHIMOVICH**

Xalq deputatlari Kogon shahar
Kengashining
2026-yil 3-apreldagi
VII-26-34-2-208-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Kogon shahar hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘im stavkalari

№	Yig‘im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)		
		Bazaviy stavka *(O‘RQ-1105 25.12.2025 y. 9-ilova)*	Qo‘llanilgan koeffitsiyent *(0,2 gacha)*	2026-yil uchun yig‘im stavkasi
1	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	600 000	0,2	720 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	0,2	360 000